

## YEVROPA CHOLG'ULARI TRUBA, VALTORNA VA SAKSOFON HAQIDA MA'LUMOT HAMDA ULARNING TARIXI

**Maxmudov Tura Atamurodovich**

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7867143>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Yevropa cholg'ulari truba, valtorna va saksofon haqida ma'lumot hamda ularning tarixi haqida so'z boradi maqola davomida turli fikr va mulohazalar keltirilgan. Maqola turli rasmlar vositasida ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Yevropa cholg'ulari, yosh ijrochilar, valtorna va saksofon.

### INFORMATION ABOUT EUROPEAN INSTRUMENTS TRUMPET, HORN AND SAXOPHONE AND THEIR HISTORY

*Abstract.* This article contains information about the European musical instruments trumpet, horn and saxophone, as well as their history. The article is revealed by means of various pictures.

*Keywords:* European instruments, young performers, French horn and saxophone.

### ИНФОРМАЦИЯ О ЕВРОПЕЙСКИХ ИНСТРУМЕНТАХ: ТРУБЕ, ВАЛТОРНЕ И САКСОФОНЕ И ИХ ИСТОРИИ

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о европейских музыкальных инструментах труба, валторна и саксофон, а также их история. Статья раскрывается с помощью различных рисунков.

*Ключевые слова:* европейские инструменты, молодые исполнители, валторна и саксофон.

Sharq xalqlari damli cholg'ular ijrochiligi san'ati o'z taraqqiyotida ko'p asrlik an'analarni meros qilib olgan bo'lib, unda asosan an'anaviy ustoz-shogird uslublari keng rivojlangan. Ya'ni bu an'ana ustozdan-shogirdga, otadan-o'g'ilga asrlar davomida og'zaki yo'l bilan o'tib kelgan. Shu bois ba'zi cholg'ularni kelib chiqish tarixi haqidagi yozma ma'lumotlar kam uchraydi. Ammo ularning paydo bo'lishi bilan bog'liq rivoyatlar hozirgacha yetib kelgan. Shulardan biri «Mehtarlik risolasi» bo'lib, unda rivoyat qilinishicha (bu risola mazmunini keksa ustoz baxshilardan biri Tursun baxshi Jumaniyozov quyidagicha hikoya qiladi): Olloh-taolo Odam ato tanasini loydan yasagandan keyin, elchi farishta hazrati Jabroyil, olamni harakatlantiruvchi farishta hazrati Mikoyil, oxiratda karnay (sur) chaluvchi farishta hazrati Isrofil, jon oluvchi farishta hazrati Azroilga vujudga jon kirgizishni topshirgan ekanlar. Odam ichining qorong'u zimistonligidan jon u yerga kirishdan bosh tortadi. Farishtalar ko'p va xo'p o'ylashib, oxiri jonni antiqa yo'l bilan odam vujudiga kiritishga qaror qilibdilar. Ular jannatdan «dup» (Tursun baxshi tut deb ta'riflaydi) yog'ochini olib chiqib, tanbur, dutor, nay (ba'zi manbalarda surnay va boshqa damli cholg'ular) va g'ijjak cholg'ularini yasabdilar, lekin qancha urinishmasin ulardan tovush chiqara olishmabdi. Farishtalar charchab uxlab qolishibdi. Ularning hatti-harakatini narida kuzatib turgan Shayton alayhulanna (lanatlangan) bari-bir men aralashmasam hech ish chiqmas ekan deb tanbur, dutor va g'ijjaklarning quloqlaridan pastiga bir donadan cho'p qistirib, nayning teshiklari yonidan bir teshik ochadiki, «shayton xarrak» va «shayton teshik» iboralari ana shundan qolgan. Bir payt to'rttala farishta uyg'onib qarashsa, cholg'ular qo'l tekkizishga mahtal bo'lib jaranglab turgan emish. Shundan keyin hazrati Jabroyil latif nag'ma o'ylab topadi va uni farishtalar bilan jo'rlikda chalib,

jonni Odam ato vujudiga kiritgan ekanlar. Ushbu voqe'adan keyin nag'ma va cholg'ularning piru-ustozlari Jabroyil (xristianlarda arxiangel Gavriil) hisoblangan. Shuningdek, temirchilar piri hazrati Dovud, uning har bolg'a urishidan yangi nag'ma paydo bo'lar va 360 nag'masi borligi ta'riflanadi. Nafasi o'liklarga jon bag'ishlovchi hazrati Iso, ezgu ishlarni amalga oshiruvchi va adolatparvar kishilar xomiysi Xo'jayi Xizir, yuqorida muborak nomlari keltirilganlardan tashqari, musulmon payg'ambar va pirlardan Muhammad (s.a.v.) va uning choriyorlari Abu Bakr, Usmon, Umar, Ali (roziyallohu anhumal), doston qahramonlari Jamshid, Rustam, Suxrob, Bobo Qo'rqit, Oshig' Oydin pir, Go'ro'g'li, Oshiq G'arib va boshqa juda ko'plab mo'tabar va tabarruk pirlar sozandalik va mehratlik hunari rivojini ta'minlar ekanlar. Shu sababdan ham ularga sig'inish va piru-ustoz deb bilish mehtarlik risolasidagi og'zaki ravishda muhrlangan qonun bo'lib xizmat qilgan.

Sharq uyg'onish davrining olimlari o'zlarining qomusiy asarlarida musiqani matematikaning bir bo'lagi deb hisoblaganlar va o'sha asarlarida o'z davrida istifoda qilingan cholg'ular nomlarini ham keltirganlar. Shundaylardan – Markaziy Osiyolik qomusiy olim Abu Nasr Farobiy (870-959) o'z risolalarida mizmar, mizomir nomli (bulamonga o'xshash) damli cholg'ular haqida axborot bergan bo'lsa, Kotib Xorazmiy o'zining «Mafatix al ulum» asarida torli va urma cholg'ular bilan birgalikda surnay va bulamon sozlarini ham keltirib o'tgan. Mahmud bin Ma'sud Qutbiddin ash Sheroziy (1236-1310)ning «Durrat ut-toj li-g'urrat id-diyboj» (Shoh tojini bezovchi noyob dur) qomusiy risolasida damli cholg'ularni tovush hosil etilishi bo'yicha uch turga tasniflangan. Bular xushtaksimlar, tilli-dudikli va karnaylardir. Shuningdek, u cholg'ular pardalarini ijrochi og'zi tomoniga qarab ochilib borishi natijasida tovushning balandlashuvi va safillar (pereduvanie)ga doir ma'lumotlarni ham keltirgan. Darvish Ali Changiyning «Tuhfat us surur» musiqiy risolasida aytilishicha, Nayi-ban cholg'usi XIII asrda yashab o'tgan musiqashunos olim Safiuddin Abdulmo'min al Urmaviy tomonidan ixtiro qilingan. U temirchilarning dam beruvchi meshini ko'rib, mazkur cholg'uni yasagan ekan.<sup>2</sup> Echki terisidan yasalgan meshning uch tomonidan uchta qamish naycha tiqib o'rnatilgan bo'lib, bir naychadan puflab havo to'ldiriladi. Ikkinchi naycha olti teshikli bo'lib, asosiy kuy shu naychada chalinadi. Uchinchi naycha faqat bir ohang (tovush) chiqaruvchi bo'lib, asosiy nayga jo'rnavoz hisoblanadi. Nayi-ban Xorazmshohlar davrida to'y, sayil, harbiy yurish va boshqa marosimlarda chalingan. Jaloliddin Manguberdining harbiy yurishlari davrida u ko'pchilik xalqlar orasida tarqalgan bo'lib, Sharqiy Ovro'pada volinka, ojarlarda chiboni, ozarbayjonlarda tulum, osetinlarda lalim, chuvashlarda sarnay va shunga o'xshash nomlar bilan atalgan. Mazkur soz hozirgi davrda Fransiya hukumati faxriy qorovullarining ramziy cholg'usi sifatida qo'llaniladi.

Quyida yevropa cholg'ularida truba, valtorna va saksafonga to'xtalib o'tamiz.

**Truba** (qad. nem. trumba — quvur) — yuqori registrli mispuflama soz hisoblanadi. U yorqin va kuchli ovozga, keng texnik (virtuoz) imkoniyatlarga ega. Nayi bir aylana bukilgan, kanalining uz. 1500 mm atrofida. Mazkur cholg'u asbobi qadimdan ma'lum bo'lib, o'rta asrlarda harbiy, signal musiqi cholg'usi sifatida keng tarqalgan. Jez yoki mis va rux qotishmasidan yasaladi. 19-asr boshidan pompa yoki ventil mexanizmlil Trubalar paydo bulgan. Hozirda, asosan, si bemol (in V) va do (in S) tonidagi Trubalar qo'llaniladi. Yakkanavoz, ansambl va orkestr sozi sifatida ishlatiladi. O'zbekiston Truba ijrochiligi va ta'lim tizimida V. Pulatov, V. Verigin, M. Muhiddinovlar tanilgan. O'zbek kompozitorlaridan S. Karimhoji (2 ta — 1967, 1968), M. Bafoyev (1979), P. Xoliqov (1987) va boshqa Trubalar uchun konsertlar yaratishgan.



**Valtorna** (nem. Waldhorn — oʻrmon bur-gusi) — mundshtukli puflama soz. Tovush tembrining nafisligi bilan boshqa mis puflama sozlardan farq qiladi. 19-asrning boshida xromatik (ventilli) turi paydo boʻlgan. Unda joylashgan qoʻshimcha naychalar yordamida ijrochi asosiy havo yoʻlini uzaytirib, barcha xromatik tovushlarni chalishi mumkin. Hozirda Valtorna asosan "fa", baʼzan "sibemol" sozida chiqariladi. Diapazoni taxminan 3,5 oktava. Valtorna simfonik va puflama sozlar orkestrlarida, kamer ansamblarda va yakkanavoz soz sifatida ishlatiladi.



**Saksofon** (inglizcha: *saxophone*) — puflama tilchali musiqa cholgʻu asbobi. Belgiyalik musiqa cholgʻulari ustasi Adolphe Sax ixtiro qilgani (1841) uchun uning nomi bilan atalgan. Turli (jez, rux va boshqalar) metallar qorishmasidan tayyorlanadi. Mundshtugi yakka tilli. Chalgʻichbarmoq teshiklari klapanlar bilan berkitiladi. Asosan, 7 turi (sopraninodan kontrabagacha) mavjud. Yorqin, kuchli va shirali tovushi, keng texnik (virtuoz) imkoniyatlarga ega boʻlgan saksofon jaz musiqasida asosiy cholgʻulardan hisoblanadi. Puflama sozlar orkestri, estrada orkestri, baʼzida simfonik va opera orkestrlari tarkibiga kiradi. Yakkanavoz konsert musiqa



cholgʻusi sifatida ham foydalanilmoqda (K. Debyussi, Rapsodiya; A. Glazunov, Saksofon va torli orkestr uchun konsert va boshqalar).

Oʻzbekistonga 19-asrning oxirgi choragida rus harbiy orkestrlari bilan birga kirib keldi. Hozirda Oʻzbekiston Qurolli Kuchlar orkestrlari, turli estrada orkestr va ansambllari tarkibidan oʻrin olgan. 1990-yil Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida, keyinchalik, musiqa kollejlari saksofon sinfi ochilgan. Sh. Esonboyev, B. Shukurov, Y. Jivayev, B. Murtazoyev, Y. Gulzarov kabi S. ijrochilari tanilgan.



Ushbu cholgʻular Sharq xalqlarida mavjud boʻlib, ularning musiqa sanʼatida ham katta oʻrin egallaydi. Ammo ularni ishlatishda esa har bir xalqning milliy musiqasida maʼlum darajada farq borligi ajralib turadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda, oʻzbek va tojik xalqlarida koʻpgina cholgʻular va ularning ishlatilishi deyarli bir xil ekanligining ham guvohi boʻlamiz.

#### REFERENCES

1. Алимбаева К., Ахмедов М. Ўзбек халқ созандалари. Т., ЎзДавНашр. 1959.
2. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана. М., «Музгиз», 1933.
3. Беляев В. «Музыкально этнографические работы А.Ф.Эйхгорна в Узбекистане». -В кн.: «Музыкальное фольклористика в Узбекистане». Т., 1963.
4. Бельский.Б.М. «Духовой, а вернее – душевный оркестр» (Духовой оркестр в истории музыкальной культуры Самарканда), Самарканд, 1983.
5. Бегматов С. Маком сурнай йўллари. Т., «Мусика», 2004.
6. Вызго Т. «Первые музыкальные учебные заведения». -В кн.: «История Узбекской советской музыки». Т. I. Т., 1972.